

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ART TERAPIYA VOSITASIDA IJODIY TAFAKKURINI SHAKLLANISHI

Kushakova Nargiza¹

Zoxidjonova Munisaxon²

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

KEYWORDS

Psixologiya, pedagogika, bilish jarayonlari, emotsiya, dualizm, intellekt, ong, shaxs, ta'lim, ijodiy tafakkur, kreativlik, dialektika, integratsiya, kompleks.

ABSTRACT

Art terapiya o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda samarali vosita bo'lib, ular muammolarni hal etish, yangi g'oyalarni yaratish va o'zini ifoda etishda yordam beradi. Emotsional va psixologik rivojlanishda art terapiya nafaqat ijodiy tafakkurni rivojlantirish, balki o'quvchilarning emotsional va psixologik holatini yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi. Bu usul orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va stressni yengish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Erta yoshda kreativlikni rivojlantirishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kreativlikni rivojlantirish juda muhim, chunki bu yoshdagi bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda eta olishlari, yangi g'oyalarni yaratishlari va hayotdagi muammolarni turlicha yechishlari muhim. Art terapiya usullari bu jarayonni tezlashtiradi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15475669**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limida bolalarning ijodiy va aqliy salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, **2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"** gi Farmonda yoshlarning ijodiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan. Ushbu Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda "Milliy o'quv dasturi"ni yaratish bo'yicha ishlar boshlangan. Bu dastur bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun sermazmun va tushunarli darsliklar yaratishni nazarda tutadi. Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual potentsiali bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potentsiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarida doimo ilg'or bo'ladi. Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalari doirasidan

¹ Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Amaliy psixologiya" kafedrasida katta o'qituvchisi. PhD

² Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti amaliy psixologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

tashqari yangi zamonaviy fanlar va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o'zlashtirish zamon talabiga aylanmoqda.[1] Ijodiy qobiliyatlar muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma'lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Bu muammo yuzasidan qadimdan to shu kunga qadar ishlanishlar olib borganlar. Insonning imkoniyatlarini o'rganishga sharq mutafakkirlari (Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino), Rossiya psixologlari (B.M.Teplov, B.G.Ananov, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, A.G.Kovalev, V.N.Myasishev), G'arb olimlari (A.Bine, T.Simon, F.Galton, V.Shtern, U.Ollport, K.Rodgers) kabilar katta hissa qo'shganlar. Ushbu muammo ustida O'zbekiston psixolog olimlari (E.G'oziyev, R.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, B.R.Kodirov, V.A. Tokareva va boshqalar) ham izlanishlar olib borganlar. Ijodiy tafakkur ontogenezda tabiiy-biologik asoslarning ijtimoiy vaziyat fonida rivojlanishi natijasida shakllanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, aks ta'sir ko'rsatib, shaxsning ijtimoiy vaziyati va ijtimoiy faolligining rivojlanishiga olib keladi. Bunda ijodiy tafakkurning individual-tipik, biologik va intrapsixik tarkibiy qismlarining faollashuvi yuz beradi. Ijodiy tafakkur dinamikasining ichki omillari – bu psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, o'quv jarayoni natijasida yuzaga keladigan intrapsixik rivojlanish mexanizmlari bo'lsa, tashqi omillar – bu muhit ta'siri hamda o'qitish va tarbiyalashning psixologik-pedagogik ta'sirlaridir. Psixologiyada rivojlanishning dualizm tamoyiliga asoslanib, ijodiy tafakkurga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik-pedagogik omillarni qarama-qarshiliklar shaklida tasvirlash mumkin. Bu qarama-qarshiliklar bir tomon foydasiga emas, balki uchinchi sintez variantiga olib chiqish orqali hal etiladi. Bu esa ijodiy tafakkur rivojlanishining yuqori bosqichiga o'tishni anglatadi. Bolalar ijodkorligini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik qarama-qarshiliklar tizimining birinchi elementi bu ko'nikma va bilimlar (reproduktiv tajriba) sohasi bilan asl ijodiy soha o'rtasidagi nisbatdir. B.B. Kossovning fikriga ko'ra, ushbu nisbatning dialektikasi shundan iboratki, bililgan soha doimo ijodiy soha hisobiga kengayadi, ijodiy rivojlanish esa o'z materiali sifatida tajriba sohasidan oziqlanadi. [2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ijodiy tafakkurning jarayonli va shaxsga oid tomonlari – bu uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi navbatdagi ichki omil bo'lib, oldingi omillar kontekstida qisman ko'rib chiqilgan. B.B. Kossovning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ijodiy tafakkurning psixologik-pedagogik shakllanishi shaxs psixik jarayonlarining rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Psixik funksiyalar tizimi shakllangani sari ijodiy tafakkur o'z jarayonli komponentini rivojlantiradi. Masalan, intellektual qobiliyatlar asosida tafakkur apparati takomillashtiriladi, tafakkur tasavvur, diqqat, idrok, xotira bilan bog'lanadi. Shaxsning integratsiyalashuvchi funksiyalari qo'shilgach, ijodiy tafakkur yanada yuqori bosqichga ko'tariladi. Yuqorida keltirilganlarning barchasi ijodiy tafakkur umumiy rivojlanish qonunlariga muvofiq rivojlanishini ko'rsatadi. Bu jarayon o'quv-bilish faoliyati tuzilmasiga kiritilgan holda, mavjud psixik aloqalarni boyitadi, murakkablashtiradi, integratsiya qiladi, bolalar psixik jarayonlari va shaxsini barqaror birlashuvga olib keladi. Ijodiy tafakkur rivojlanishning o'ziga xos harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'lim va tarbiyaning asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin. E.K. Lyutova fikriga ko'ra, boshlang'ich maktab yoshida birinchi marta to'laqonli ijodiy tafakkur haqida gapirish mumkin bo'ladi, ammo u o'zini namoyon qilishda vaziyatga bog'liq va o'z-o'zidan yuzaga keluvchi

xususiyatlarga ega.[5] O'smirlik yoshida esa ijodiy tafakkur rivojlanish uchun yangi turtki oladi, mustahkamlanadi va o'quv-bilim faoliyatining ichki psixologik aloqalari tizimiga kiradi, shaxs tomonidan nazorat qilinadi. Ijodiy tafakkur shakllanishining barcha asosiy elementlari boshlang'ich maktab yoshidan o'smirlik yoshigacha bo'lgan davrda kuzatiladi. Boshlang'ich maktab yoshi o'quv faoliyatiga kirish bilan ajralib turadi. O'quv faoliyatining psixologik tomoni – bu bolalar tomonidan turli mazmun va murakkablikdagi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, shuningdek, ushbu bilimlardan foydalanish usullarini o'zlashtirish jarayonidir. Bolalarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni faqat alohida faktlarni eslab qolish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy tajribaning shaxsiy tajriba bilan birlashuvi, har bir yangi faktda subyektiv va amaliy bo'lakchani topish bilan bog'liq. Shunday qilib, o'qitish jarayonida shaxsiy tajribaning doimiy boyib borishi sodir bo'ladi. Ta'lim jarayoniga kirishning o'zi bolalarning motivatsion ehtiyoj sohasini rag'batlantiradi, ko'plab ehtiyojlarni obyektivlashtiradi va yakunda barqaror motivlarni shakllantiradi. O'qish jarayonida bola o'zining hozirgi, o'tgan va kelajakdagi dunyosini yangi nuqtai nazardan ko'ra boshlaydi, uning butun hayoti yangi ahamiyatli faoliyat — bilimga asoslangan o'quv faoliyati ta'sirida shakllanadi. Ushbu faoliyat yetakchi bo'lib, D.B. Elkoninning klassik tezisiga ko'ra, yetakchi faoliyat boshqa yoshga oid faoliyat turlarini belgilaydi va ularning shakllanishi hamda tafovutlanishi aynan undan kelib chiqadi.[3] Shunday qilib, ijodiy tafakkurni o'quv jarayoniga bog'liq deb aytish o'rinlidir. Ijodiy tafakkur doimiy kengayib borayotgan ko'nikma va malakalar sohasida boyib boradi, bola tanish buyumlar bilan yangi usullar orqali ish yuritishni o'rganadi, ularni yangi aloqalarga qo'shadi. Shuningdek, o'quv faoliyati orqali ijodiy tafakkur intellektual va aqliy kuchlarni faollashtirish nuqtai nazaridan ham boyiydi. P.P.Blonskiy o'z tajribalarida bolalarning ancha murakkab, mavhum xarakterga ega ijodiy vazifalarni hal qilish, keng tushunchalar bilan ishlash va ularning kompleks ma'nolarini anglash qobiliyatlarini ko'rsatib berdi. Ushbu yoshda o'quvchilar umumlashtirish amaliyotiga egalik qilish orqali murakkab tushunchalar va kategoriyalarni "aylanma" usulda o'zlashtiradi. Ya'ni, ular o'zlari uchun odatiy bo'lgan konkretlikni ob'ektlarning umumiy belgilari bilan birlashtiradi. L.A. Grigorovich, V.L. Danilova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi, ular intellektual oldindan ko'ra bilish ijodiy tafakkurning tarkibiy qismi bo'lib, yosh o'tishi bilan qisqarib boradigan yo'naltiruvchi fikrlash harakatlarining o'ziga xos davomi ekanligini ko'rsatadi. Har qanday yoshda muammoni hal qilishning dastlabki bosqichi yo'naltirish hisoblanadi, ammo boshlang'ich maktab yoshida kengaytirilgan yo'naltiruvchi bosqich xosdir. Ko'rinib turibdiki, amaliy va faol tafakkurdan uning mukammal shakllariga o'tish endigina boshlanganligi sababli, kichik yoshdagi maktab o'quvchilari muammoni hal qilishda ularga xos bo'lgan aniq vizual yo'naltirish shakllaridan foydalanadilar, shu bilan birga, fikrlash orqali yo'naltirish ham keng qamrovli bo'lib qoladi.[4]

M. S. Egorova (2000) tadqiqotlariga ko'ra, **6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan davrda** kreativlik va intellekt o'rtasidagi bog'liqlik **sezilarli darajada pasayadi**. Hozirgi vaqtda keng tarqalgan qarash shundan iboratki **intellekt kreativlik uchun zaruriy shart** hisoblanadi. **Past intellekt (konvergent qobiliyatlarning pastligi)** kreativlikning mavjud bo'lishiga **to'sqinlik qiladi**. **Yuqori IQ esa kreativlikni kafolatlamaydi** – ya'ni, **yuqori intellektga**

ega insonlar orasida ham kreativ, ham kreativ bo'lmaganlar uchraydi (Dodd, White, 1980). Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, **intellekt va kreativlik o'rtasidagi bog'liqlik chiziqli emas. IQ oshishi kreativlik darajasining oshishi bilan bog'liq, lekin faqat ma'lum bir chegaragacha. IQ 120–127 ball chegarasidan oshgandan so'ng, kreativlik bilan bog'liqlik yo'qolishi yoki hatto salbiy tomonga o'tishi mumkin** (Fuchs et al., 1993). Verbal va neverbal kreativlikning intellektual jarayonlar bilan bog'liqligi. **M. A. Xolodnaya (2002)** tadqiqotlariga ko'ra, **kreativlikning to'rtta asosiy ko'rsatkichi:**

1. *Fikrlarning tezligi,*
2. *G'oyalar originalligi,*
3. *Stimulusning tuzilmasini ishlab chiqish,*
4. *Nomlashning originalligi.*

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, **yangi va noodatiy g'oyalarni yaratish – spontan (o'z-o'zidan yuz beradigan) jarayon emas, balki boshqariladigan jarayondir.** Kreativ g'oyalar **shaxsning ponjatiy va metakognitiv tajribasi orqali "filtrlanadi".** Korrelatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatdi. **So'z-ravonlik (verbal) komponenti** quyidagilar bilan bog'liq: **g'oyalar begliligi** (verbal kreativlik) ($r = 0,36, p = 0,02$), **g'oyalar originalligi** (verbal kreativlik) ($r = 0,39, p = 0,01$), **Stimulusni ishlab chiqish** (neverbal kreativlik) ($r = 0,53, p = 0,001$), **fazoviy-ko'rish komponenti g'oyalar originalligi** (verbal kreativlik) ($r = 0,33, p = 0,05$), **stimulusni ishlab chiqish** (neverbal kreativlik) ($r = 0,32, p = 0,05$) **bilan bog'liq, his-tuyg'u sensor komponenti** faqat bitta bog'liqlikka ega **nomlash originalligi** (neverbal kreativlik) ($r = 0,32, p = 0,05$) **bilan bog'liq.**

Bolalar o'z his-tuyg'ularini so'z bilan ifoda etishda qiynaladigan paytlarda, san'at vositalari yordamida o'z ichki kechinmalarini ifoda etish imkoniga ega bo'ladilar. Rasm chizish, bo'yash, qo'l san'atlari orqali bolalar ichidagi stress va tushkunlikni kamaytirib, hissiy bo'shashni ta'minlaydi. Shuningdek, art-terapiya bolalarga o'zini anglash va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Ular o'z ishlarida nimani his qilayotganini ko'rib, o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunishni o'rganadilar. Bu esa ularning o'zini boshqarish qobiliyatini oshiradi. Guruhda olib boriladigan mashg'ulotlar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ular bir-birlari bilan muloqot qilishni, hamkorlikda ishlashni va fikr almashishni o'rganadilar. Shu tariqa, ular jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beruvchi muhim ko'nikmalarni hosil qiladi. Art-terapiya ijodkorlik va tafakkur rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar turli materiallar va usullar bilan ishlash orqali tasavvur kuchini oshirib, muammolarga yangi yechimlar topishni o'rganadilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlashini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, o'z ishlarini yaratish orqali bolalar o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va o'zini qadrlash hissini rivojlantiradi. Bu esa ularning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Art-terapiya, ayniqsa, harakatlari yoki his-tuyg'ularini ifoda etishda qiynalayotgan bolalar uchun foydalidir. Ular o'z ichki ziddiyatlarini san'at orqali yengillashtiradi, tinchlanadi va atrofdagilarga nisbatan ochiqroq bo'lishga harakat qiladi.

Xulosa. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy tafakkurning operatsion komponenti va

uning keyingi rivojlanish dinamikasi bolaning qaysi sohalarga qiziqish bildirishi bilan bog'liq emas. Muhimi shundaki, bolada o'qishga, bilishga, tafakkur faoliyatiga bo'lgan qiziqish saqlanib qolishi va rag'batlantirilishi kerak. Qiziqishning saqlanib qolishi tafakkur va ijodiy faoliyatdagi faollikning ham saqlanib qolishiga olib keladi. Bu esa o'qitish jarayonida yangi va allaqachon ma'lum bo'lgan bilimlarning uyg'unligiga bog'liqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, **maktab yoshidagi bolalarning ijodiy tafakkuri ham mazmuniy, ham jarayon jihatidan rivojlanadi va bu rivojlanish, avvalo, yangi o'quv faoliyati va uning psixik bog'lanishlarida yuzaga keladigan o'zgarishlar bilan belgilanadi. Muloqotga asoslangan bog'liqliklarning rivojlanishi, ong va shaxs nazoratining ortishi hamda yanada samarali tafakkur shakllarining shakllanishi ajralib turadi.** Bolaning psixik olamidagi bu va boshqa o'zgarishlar hali mukammal bo'lmagan, biroq yetarlicha to'laqonli va moslashuvchan ijodiy faoliyatning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi **PF-6108-sonli** "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
2. Черничкая Надежда Игоревна - к. психол. н., доцент филиала Иркутского государственного университета в г Ангарске. Из статьи " Психологические факторы и особенности развития творческого мышления младших школьников и подростков"
3. Elkonin, D.B. (1989). *Psixologiya razvitiya uchashchikhsya*. Moskva: Znaniye.
4. Kodirov, B.R. (2001). *Shaxs va tafakkur*. Toshkent: Fan.
5. Lyutova, E.K. (1985). *Formirovanie tvorcheskogo myshleniya u mladshikh shkolnikov*. Moskva: Pedagogika